

## GENDER TENGLIKNING PSIXOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI

*Andijon davlat unversiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti*

*Oila psixologiya yo`nalishi talabasi*

*Soliyeva Nigora No'mon qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Respublikasida ayollar haq-huquqlarini himoya qilish va uni jamiyatda tutgan rolini oshirish va gender tenglik munosabatlarining siyosiy- ijtimoiy holati tahlil qilingan. Kalit so'zlar: gender, gender tenglik, BMT nizomi, psixologik trening, O'zbekistonda gender tengligi.

**Kalit so'zlar:** *himoya qilish va uni jamiyatda tutgan rolini oshirish va gender tenglik munosabatlarining siyosiy ijtimoiy holati tahlil qilingan. gender, gender tenglik, bmt nizomi, psihologik trening, O'zbekistonda gender tenglik*

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, “jins” ma'nosini bildiradi. Gender strategyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, talim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategyasi 1-bob Umumiy qoidalar 1-ilova. Gender tushunchasi o'zbek olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Masalan, K. R. Aliyev “O'zbekiston Respublikasi gender tengligini ta'minlashning konstutsiyaviy- huquqiy asoslari” nomli ilmiy ishida ushbu tushunchaning yurtimizdagi konstutsiyaviy jihatdan qay tarzda shakllanganligini va davlatimiz qonunchiligida belgilangan tartibdagi ijrosini o'rganish masalalari olib chiqilgan. Umumiy qilib olganda tilda “jins” va “Gender” tushunchalari o'zaro sinonim sifatida bir-birining o'rnida qo'llab kelingan. Lekin ushbu tushunchalar bir-biri bilan Gender tushunchasiga turli olimlar tilshunoslar turlicha ta'rif berib kelishgan.

Yangi O'zbekistonda ya'ni inson huquqlari kafolatlari ta'minlangan demokratik va fuqorolik jamiyatida ijtimoiy-siyosiy faol ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki talab etiladi. Mazkur ishtirokni ko'pchilik bo'lib ta'minlash esa hammamizning zimmamizdagi vazifadir. Shu bois jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqli va imkoniyatlarni yaratishda ilmiy asoslar g'oyalar, takomillashgan qonunlar hamda samarali amaliy chora tadbirlar bilan ishlarni davom ettirish muhim bo'lib qolmoqda. O'ylaymanki, oldimizga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda har qanday sinovlardan muvofaqiyatlarga erishamiz. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohalardagi samarali mehnat qilmoqda ayniqsa farzandlar tarbiyasi oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hech narsa bilan o'lchab baholab bo'lmaydi. Ayni vaqtda<sup>1</sup> Davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarga yaratib berilayotgan imkoniyat va sharoitlar tufayli ayollarimiz davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda ularning mavqei tobora oshib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizning chinakam baxtli yashashlari uchun ularning huquq va erkinliklari ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarini hamohang tarzda bajarilishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'birlari bilan aytgan "Ayollarning baxti – xalqimiz, jamiyatimizning baxtidir". Mamlakatimiz xotin-qizlari huquqlarini himoya qilish va gender tengligi borasidagi xalqaro talablarni bajarib kelmoqda. Xususan 1995-yil 6-maydagi "Xotin-qizlarni kamsitishning barchashakillariga barham berish to'g'risida" gi, shuningdek, "Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirishda" gi Konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim tamoildir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish eng muhim masaladir. "Ilmiy tadqiqotlarda gender masalsini inobatga

---

<sup>1</sup> "Ilmiy tadqiqotlarda gender masalasini inobatga olish" mavzusidagi to'plam "Mahalla va oila nashriyoti"  
"Toshkent-2023 yil"

olish ‘mavzusidagi Yozgi maktab yakunlari bo’yicha to’plam. Toshkent 2023 yil. BMT Ayollar tashkiloti butun dunyo bo’ylab ayollar va qizlar uchun barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish maqsadini ko’zlaydi va 4 ta strategik ustuvorlikka e’tibor qaratgan holda hayotning barcha jabhalarida ayollarning teng ishtirokini qo’llab-quvvatlaydi. -hukumat faoliyatidagi ayollar boshqaruv va ishtiroki teng; -ayollarning daromad olish, munosib ish tanlash va iqtisodiy mustaqillikka ega bo’lish imkoniyati; -barcha ayollar va qizlar zo’ravonlikning barcha shakllaridan xoliligi ayollar va qizlar barqaror tinchlik va insonparvarlik harakalaridan teng foyda olishi kerak. Gender tengligiga rioya qilish siyosatining barcha bo’g’inlarida gender paritetlik tamoyilini amalga oshirish BMT Nizomi alohida belgilab qo’yilgan. Xususan, BMT Ayollar maqomi bo’yicha komissiyasi (“CSW”) gender tengligiga amal qilishgan. Ayollarning milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosida siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda to’laqonli va teng ishtirok ertishi jins bo’yicha kamsitishning barcha turlariga barham berish xalqaro hamjamiyatning birinchi navbatdagi maqsadlariga aylanmoqda. BMT ayollar tashkiloti Advice. uz Huquqiy axborot portali. Birinchi navbatda psixolog qanday xizmat ko’rsatadi? Ayollarning huquqiy bilimini oshirish, tushkunlikka tushgan, turli xil tazyiq, zo’ravonlik va bosimga duch kelgan ayollarni qo’llab-quvvatlash maqsadida psixolog, motivator va ekspertlarni jalb qilish orqali turli xil metodlar, treninglar, seminarlar o’tkazish maqsadga muvofiq. Qolaversa, ushbu seminar- treninglar orqali ayollar o’z huquqlarini himoya qilish hamda kamsitishga qarshi kurash usullari to’g’risida ma’lumot olishlari mumkin. Mahalla, maktab, kollej, universitetlarda, ruhiy kasalxonalar, nevrologik dispanserlarda, poliklinikalar, qisqa qilib aytganda davlat tashkilotlarda psixologik treninglar o’tkazilishi, qizlar bilan suhbatlashish orqaligina ularni turmushga tayyorlash, gender tenglikni ta’minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash mumkin. Oilada zo’ravonlikka chek qo’yish maqsadida mahalla, korxonava tashkilotlar hamda oliy ta’lim tashkilotlarida xotin- qizlar va gender tenglik masalasi qo’mitalari tuzish ijoboiy natija beradi. Shuningdek, "Biz zo’ravonlikka qarshimiz", shiori ostida trening, aksiyalar o’tkazilishi

va televidenyalarda ayol- qizlar mavzusida ko'rsatuvlarni ko'paytirish, yosh onalar farzandlarini tarbiyalashda psixologlarni ma'sul qilish orqali gender tenglikni ta'minlash salmoqli hissa qo'shishi mumkin. Ayollarni rehabilitatsiya qilish markazlari ilg'or xorijiy tajribalarning mamlakatimiz amaliyotiga integratsiya qilishi 2018-yildan boshlab bizning hayotimizga "shelter" tushunchasi kirib keldi. Bu atama avval boshidan zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan ayollarni rehabilitatsiya qilish markazlari, deb yuritilmoqda. Markaziy Osiyo jamiyat gender tengligi oila xalqaro ilmiy jurnali 105-bet Toshkent 2023. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun tenghuquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" 2019-yil sentabrdagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining yil 20-apreldagi 07. 2-107-sonli tipshirig'i hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirining 2020-yil 28-maydagi 132-son buyrug'iga muvofiq o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologok-pedagogik respublika tashxis qo'yish markazida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat- kengashi faoliyatini tashkil etish maqsadida markazning 2020-yil 4-iyunidagi sonli buyrug'i chiqarildi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun tenghuquq va imkoniyatlarning ta'minlanishi vakolatli shaxs zimmasiga yuklatildi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarori. O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini asosiy g'oyasi so'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish jamiyat davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini taminlash xotin-qizlarni ijtimoiy -huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlament xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajada yetib, parlamentagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foiziga yetadi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Xotin-qizlar haq-huquqlari qonunda belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida ayollarga juda ko'p imkoniyatlar yaratilmoqda. Ko'plab ish o'rinlari va ularni ish bilan ta'minlash shu kabi ishlar amalga

oshirilmoqda. Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarga qaratilayotga e'tibor va ayollarni qadirlash va shu kabi strategik omillar barcha o'zbek xalqini quvontirmoqda. Ayollar haq-huquqlarini bilish ularning o'zligini anglashi har bir insoning o'z oldidagi burchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining qarori SQ-297 -IV-soni 28. 05. 2021-yil

Xulosa qiladigan bo'lsak ushbu maqolada gender tengligi tushunchasi mohiyati, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik va ularning haq-huquqlari va jahon va o'zbek olimlarining Gender tengligi bilan bog'liq fikr va mulohazalar keltirilgan O'zbekistonda gender tengligi tamoillari asosida insoning Shaxs-sifadida ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va ularga yechim topishni hatto xotin-qizlarga ularning qonunda belgilab qo'yilgan. Shu jumladan oilada gender tengligiga erishish ya'ni ayol kishini kamsitilishi kabi illatlarni yo'qotishga erishish turli ijtimoiy sohalarda ham ijobiy munosabatni shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori 28.05. 2021-yildagi SQ-297-IV-son.
2. K. R. Aliyeva "O'zbekiston Respublikasi Gender tengligi" Ilmiy ishi.
3. BMT ayollar tashkiloti adice.uz "Markaziy Osiyoda jamiyat , gender va oila" xalqaro ilmiy jurnali.
4. "Ilmiy tadqiqotlarda gender masalasini inobatga olish " mavzusidagi Yozgi maktab yakunlari bo'yicha to'plam. "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlar
5. Kafolatlari to'g'risida" gi qaror 02.09.2019 yil